

**ETNOEKOLOGIK MADANIYAT TUSHUNCHASI
VA UNING MAZMUN-MOHIYATI**

Komilova Nargiza O'rinovna

*Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti geografiya
kafedrasida dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD)*

Abdullayeva Nigora Xolmuhammad qizi

Farg'ona davlat universiteti, magistrant

E-mail: abdullayevanigora895645@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4553-8949>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada etnoekologik madaniyat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi pedagogik ahamiyati bugungi kun talablari asosida mukammal va izchil yoritiladi. Tadqiqotda etnoekologik madaniyatning nazariy manbalari, milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi, shaxs ekologik ongini shakllantirishdagi o'rni tizimli tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili va konseptual umumlashtirish asosida etnoekologik madaniyatning kognitiv, qadriyatli-me'yoriy va xulq-atvoriy komponentlari aniqlanib, ularni ta'lim mazmuniga integratsiyalashning metodologik asoslari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari etnoekologik madaniyat shaxs ekologik ongini shakllantirishda barqaror va ichki motivatsiyaga asoslangan pedagogik mexanizm ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: etnoekologik madaniyat, ekologik madaniyat, ekologik ong, milliy qadriyatlar, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim.

ПОНЯТИЕ ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ СУЩНОСТЬ

Аннотация. В данной научной статье подробно и последовательно освещается понятие этноэкологической культуры, ее сущность и педагогическое значение в современной системе образования на основе требований сегодняшнего дня. В исследовании систематически анализируются теоретические источники этноэкологической культуры, ее неразрывная связь с национальными ценностями, роль в формировании экологического сознания личности. На основе анализа научной литературы и концептуального обобщения выявлены когнитивные, ценностно-нормативные и поведенческие компоненты этноэкологической культуры, научно обоснованы методологические основы их интеграции в содержание образования. Результаты исследования показывают, что этноэкологическая культура является

устойчивым и основанным на внутренней мотивации педагогическим механизмом формирования экологического сознания личности.

Ключевые слова: этноэкологическая культура, экологическая культура, экологическое сознание, национальные ценности, устойчивое развитие, экологическое образование.

THE CONCEPT OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE AND ITS ESSENCE

Abstract. *This scientific article comprehensively and consistently covers the concept of ethno-ecological culture, its essence, and pedagogical significance in the modern education system based on today's requirements. The study systematically analyzes the theoretical sources of ethno-ecological culture, its inextricable connection with national values, and its role in the formation of an individual's ecological consciousness. Based on the analysis of scientific literature and conceptual generalization, the cognitive, value-normative, and behavioral components of ethno-ecological culture were identified, and the methodological foundations for their integration into the content of education were scientifically substantiated. The research results show that ethno-ecological culture is a pedagogical mechanism based on stable and internal motivation in the formation of an individual's ecological consciousness.*

Keywords: *ethno-ecological culture, ecological culture, ecological consciousness, national values, sustainable development, ecological education.*

KIRISH

XXI asrda texnologik va sanoat taraqqiyotining jadallashuvi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar tizimida jiddiy nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, tuproq va suv resurslarining tanazzuli kabi global ekologik muammolar barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid solmoqda. BMT Bosh Assambleyasining “2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi” hujjatida qayd etilishicha, hozirgi ekologik inqiroz insoniyat kelajagiga xavf soladi va uni yengib o‘tish uchun barcha davlatlar hamjihatlikda harakat qilishi lozim. Ilmiy manbalarda mazkur global muammolarning ildizi faqat texnologiyada emas, balki insonning tabiatga bo‘lgan munosabatida, ya’ni ekologik ong va madaniyatning yetarlicha shakllanmaganida ekanligi ta’kidlanadi. Darhaqiqat, barqaror rivojlanishga erishishda aholi ongida ekologik dunyoqarash va madaniyatni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ekologik madaniyat odatda shaxsning tabiatga munosabatini belgilovchi bilimlar, qadriyatlar, me’yorlar va xulq-atvorlar tizimi sifatida izohlanadi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish

nafaqat ekologik bilim berish, balki insonning kundalik xulq-atvorini va qadriyatlarini o‘zgartirishni ham nazarda tutadi. UNESCO ta’rifiga ko‘ra, barqaror rivojlanish uchun ta’lim insonlarga atrof-muhit va jamiyat farovonligi yo‘lida bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulq-atvorlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, har bir kishi ongli ravishda tabiatga zarar yetkazmaydigan turmush tarzi tanlashiga undaydi. Shunday ekan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida milliy madaniy tajriba va qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Ilmiy adabiyotlar ekologik madaniyatning barqaror va uzviy shakllanishi ko‘p jihatdan xalqning tarixiy-madaniy merosiga tayanishini tasdiqlaydi. Ta’lim mazmunini o‘quvchilarning hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan bog‘lash, tadqiqotchilarning fikricha, ularning ekologik bilim va tushunchalarni chuqurroq anglashiga hamda amaliy faoliyatga tatbiq etishiga zamin yaratadi. Aksincha, madaniy ildizlardan uzilgan holda ekologik muammolarni faqat umumiy va nazariy shaklda o‘rgatish o‘quvchilarda tushkunlik hamda “ekologik loqaydlik” holatini yuzaga keltirishi mumkinligi kuzatilgan. Shu sababli zamonaviy ekologik ta’limda an’anaviy bilim va qadriyatlarga tayangan holda tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikrlar nuqtayi nazaridan, etnoekologik madaniyat tushunchasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Etnoekologik madaniyat muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan tabiat bilan munosabatga oid an’anaviy bilimlar, ekologik qarashlar, axloqiy me’yorlar hamda urf-odat va an’analar majmuini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, etnoekologik madaniyat – xalqning tabiiy muhit bilan murosas qilish borasidagi avlodlar o‘tib kelayotgan bilim va tajribasi, madaniy qadriyatlari hamda turmush tarzining uyg‘unlashgan tizimidir. Bu madaniyat shaxsda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni tashqi majburiyat emas, balki ichki e’tiqod darajasida shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, etnoekologik madaniyat yosh avlodning ekologik ongi va xulqini barqaror rivojlantirishga qaratilgan qudratli tarbiyaviy mexanizm vazifasini o‘tashi mumkin.

Xalqaro miqyosda ekologik ta’limni mahalliy madaniy va hududiy xususiyatlarga tayangan holda tashkil etish zarurligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda uqtirilgan. Jumladan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim” konsepsiyasida har bir mintaqa va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ekologik ta’lim dasturlarini ishlab chiqish alohida ta’kidlanadi. Bunday yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, chunki o‘quvchilarda ekologik muammolarni o‘z yashash muhiti va madaniy tajribasi bilan bog‘lab anglash imkoniyati kengayadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bu holat etnoekologik yondashuvni amaliyotga joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim tizimining vazifalaridan biri sifatida o‘quvchilarda atrof-muhitga ehtiyotkorona

munosabat va ekologik madaniyatni shakllantirish belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020). Shuningdek, 2019–2023-yillarda O‘zbekistonda ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan qator davlat dastur va qarorlari qabul qilinib, ularda milliy an‘ana va qadriyatlar orqali ekologik ta‘lim-tarbiya berish masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Yuqoridagilar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada etnoekologik madaniyat nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning tarkibiy tuzilmasi va ta‘lim tizimidagi integratsiya yo‘llari o‘rganiladi. Tadqiqot nazariy-ilmii xulosa va adabiy manbalarga tayangan bo‘lib, amaliy tavsiyalar va konseptual model taklif etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda etnoekologik madaniyat fenomenini o‘rganishda tizimli, madaniy-kontekstual va kompetensiyaviy yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tizimli yondashuv etnoekologik madaniyatni shaxs ekologik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida, ya‘ni ekologik bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvorlar birligi sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Bu yondashuv asosida etnoekologik madaniyatning ichki tuzilmasi va unsurlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga erishildi. Ta‘kidlash joizki, ijtimoiy tizim sifatida madaniyatni o‘rganishda bunday integrativ yondashuv muhim sanaladi – u murakkab hodisani uning komponentlari o‘rtasidagi aloqadorlikda tushuntirish imkonini beradi. Madaniy-kontekstual yondashuv doirasida etnoekologik madaniyat xalqning tarixiy tajribasi, milliy an‘analari va xalq pedagogikasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi. Bu yondashuv orqali o‘zbek xalqining tabiatga munosabatini aks ettirgan urf-odatlar, maqollar, rivoyatlar va an‘analar tahlil qilindi. Masalan, O‘zbekistonda azaldan mavjud bo‘lgan “tabiatni muqaddas bilish”, “daraxt kesma – hayot kesiladi” kabi qarashlar xalq ongida ekologik me‘yor va qadriyatlarni shakllantirgan. Xalq pedagogikasida tarbiyalanuvchilarga tabiatni asrash g‘oyalarini singdirish borasida boy meros to‘plangan. Ushbu madaniy mazmunni zamonaviy ekologik ta‘lim bilan uyg‘unlashtirish madaniy-kontekstual yondashuvning asosiy vazifasi bo‘ldi. Kompetensiyaviy yondashuv esa etnoekologik madaniyatni shaxsda ekologik mas‘uliyat va barqaror ekologik xulq-atvorni shakllantiruvchi muhim pedagogik kompetensiya sifatida izohlashga xizmat qildi. Bu yondashuv zamonaviy ta‘lim jarayoni nida kutilayotgan natijalarni – o‘quvchilarning amaliy ko‘nikma va malakalarini – hisobga olishni ta‘minlaydi. Xususan, ekologik muammolarni hal etishda zarur bo‘lgan tanqidiy tafakkur, tizimli fikrlash, hamkorlikda ishlash va mas‘uliyatli qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar etnoekologik ta‘lim orqali shakllantirilishi mumkin. UNESCOning Barqaror rivojlanish uchun ta‘lim bo‘yicha tavsiyalarida ham ta‘lim jarayoni natijasida o‘quvchilarda barqaror turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar rivojlantirilishi lozimligi qayd etilgan. Shu bois, mazkur tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida etnoekologik madaniyatning pedagogik imkoniyatlari talqin qilindi.

Tadqiqotda umumiy ilmiy tadqiq metodlari – ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda konseptual modellash metodlaridan foydalanildi. Jumladan, xalq pedagogikasiga oid manbalar va zamonaviy ekologik ta'limga oid ilmiy adabiyotlar o'rtasida qiyosiy tahlillar olib borildi; turli mualliflar tomonidan berilgan ekologik madaniyat va etnoekologik yondashuvga doir ta'rif va yondashuvlar solishtirilib umumlashtirildi. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda empirik ma'lumotlar keltirilmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Etnoekologik madaniyat o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra murakkab, ko'p qirrali va tizimli pedagogik hodisadir. U shaxs ekologik madaniyatining alohida qatlami bo'lib, umumiy ekologik madaniyatni milliy-madaniy komponentlar bilan boyitadi. O'tkazilgan tahlillar asosida etnoekologik madaniyatning uch asosiy tarkibiy qismi aniqlashtirildi va har biri mazmunan tavsiflandi. Quyida ushbu komponentlar va ularning xususiyatlari batafsil bayon etiladi: Kognitiv komponent – xalqning tabiat haqidagi an'anaviy bilimlari, mahalliy ekologik tajribasi va ekologik tafakkurini qamrab oladi. Ushbu komponent etnoekologik madaniyatning bilimiy-asosiy qatlami bo'lib, avlodlar o'rtida kelayotgan ekologik bilimlarni, urf-odat va rasm-rusumlardagi ekologik mazmundagi qarashlarni, xalq og'zaki ijodi namunalaridagi (maqol, matal, rivoyat va h.k.) tabiiy muhitga oid tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Kognitiv komponent shaxsda ekologik hodisalarni tizimli va tanqidiy anglash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

An'anaviy ekologik bilimlar ko'pincha mahalliy muhit sharoitida sinovdan o'tgan tajribaviy bilimlar hisoblanadi va ular zamonaviy ilmiy bilimlarni boyituvchi manba bo'la oladi. Masalan, xalq tabobati yoki dehqonchilikdagi an'anaviy qoidalar ortida ko'pincha tabiat qonuniyatlariga doir chuqur kuzatishlar yotadi. Xorijiy tadqiqotlar ham mahalliy xalqlarning an'anaviy ekologik bilimlari tabiatni muhofaza qilish va barqaror yashash tarzini qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatini e'tirof etmoqda. Etnobiologiya va etnoekologiya sohasidagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy aholi o'z ekologik bilimlari va amaliyotlari orqali ekotizim bilan muvozanatli aloqani saqlab kelgan. Demak, kognitiv komponent – bu o'quvchilarga tabiatga oid mahalliy bilimlar xazinasini ochib berish, ularning ekologik tafakkurini boyitish va ilmiy bilimlarni hayotiy tajriba bilan bog'lash imkonini beradi.

Qadriyatli-me'yoriy komponent – tabiatni e'zozlash, ekologik muvozanatni saqlash, tejamkorlik va mas'uliyat kabi axloqiy me'yorlar va ekologik qadriyatlar tizimida namoyon bo'ladi. Ushbu komponent etnoekologik madaniyatning ma'naviy-axloqiy asosini tashkil etadi. Har bir xalqning madaniyatida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan o'ziga xos qadriyatlar mavjud: masalan, o'zbek xalqida “hovlining farovonligi – daraxtlar ko'pligida” degan naql, yoki “ona zamin” degan tushuncha tabiatni ona darajasida ulug'lashga asoslangan qadriyatlarni aks ettiradi. Qadriyatli-me'yoriy komponent tarkibiga kiruvchi tushunchalar va

e'tiqodlar shaxs ongiga chuqur singib, uning ekologik dunyoqarashini shakllantiradi. Milliy an'analarga tayanilgan ekologik qadriyatlar barqaror ekologik pozitsiyani qaror toptirishda muhim omildir. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari orasida azaldan suvni isrof qilmaslik, yashil muhitni avaylash singari axloqiy me'yorlar kuchli bo'lgan, bu esa asrlar davomida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlagan.

Zamonaviy ilmiy izlanishlar talabalarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish ularning tabiatga munosabatini tashqi me'yor emas, balki ichki e'tiqod darajasiga ko'tarishini ko'rsatadi. Ushbu holat boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Xususan, V. Toledo tomonidan ishlab chiqilgan etnoekologik modelda "Kosmos" (dunyoqarash) deb ataluvchi e'tiqodlar tizimi mustaqil komponent sifatida ajratilib, aynan shu tizim insonlarning tabiatga munosabatini ma'naviy asosda belgilashi ko'rsatib berilgan. Indigenous (mahalliy) xalqlar misolida olib borilgan izlanishlar ham shuni nazariy jihatdan asoslandi, tabiat bilan hamjihatlikda yashash, barcha jonli va jonsiz mavjudotlarga hurmat kabi tamoyillar ularning madaniy merosining ajralmas qismidir. Xususan, xalqaro tadqiqotlar mahalliy xalqlarning ruhiy-ekoidentiteti shakllanganini ta'kidlaydi – bunda inson o'zini tabiiy dunyoning bir qismi deb bilib, atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni ma'naviy burch deb hisoblaydi. Qadriyatli-me'yoriy komponent o'quvchilarda mana shunday e'tiqodiy asos yaratishga qaratilgan bo'lib, natijada ularda tabiatga nisbatan mas'uliyat tuyg'usi, ekologik odob va burch hissi kamol topadi. Xulq-atvoriy komponent – shaxsning kundalik hayotida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy faoliyatida ifodalanadi. Bu komponent etnoekologik madaniyatning amaliy-pragmatik qatlami bo'lib, ekologik bilim va qadriyatlarning kundalik xatti-harakatlarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Xulq-atvoriy komponent doirasiga, masalan, o'quvchilarning suvni tejash ishlatishi, chiqindilarni ajratib tashlashi, daraxt ekish va parvarishlashda ishtirok etishi, tabiatga oid loyiha va tadbirlarda faol bo'lishi kiradi. Etnoekologik madaniyatga tayangan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning ekologik kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Bunga sabab, ta'lim mazmuniga mahalliy ekologik amaliyotlar va urf-odatlarini singdirish o'quvchilarga nazariy bilimlarni real hayotda qo'llash imkonini beradi. Masalan, agar dars jarayonida mahalliy dehqonlarning suvni tejash usullari yoki tabiat bilan bog'liq urf-odatlar tahlil qilinsa, o'quvchilar o'z hayotlarida bunday amaliy ko'nikmalarni qabul qilishga moyil bo'ladilar.

Xalqaro tajribada ham ekologik ta'limni faqat darslikdagi nazariya bilan cheklamay, balki jamiyatda ekologik faol xulqni rag'batlantiruvchi yo'llar qo'llanilmoqda. Masalan, YUNESKOning ESD (Barqaror rivojlanish uchun ta'lim) dasturlarida yoshlarni mahalliy ekologik loyihalarga jalb etish, hamjamiyatga foydali kichik ekologik tashabbuslarni amalga oshirish orqali o'rgatish ustuvor hisoblanadi. Xulq-atvoriy komponentning ta'limda e'tiborga olinishi o'quvchilarda atrof-muhitga doir masalalarda shaxsiy javobgarlikni shakllantiradi.

Natijada ular nafaqat ekologik bilimga ega bo‘lgan, balki shu bilimlar asosida to‘g‘ri harakat qila oladigan shaxslar bo‘lib voyaga yetadilar. Shu nuqtayi nazardan, etnoekologik madaniyat tushunchasi zamonaviy ekologik ta‘lim nazariyasida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Etnoekologik madaniyat muayyan etnosning tabiat bilan munosabatlarga doir tarixiy tajribasi, ekologik qarashlari, urf-odatlar va axloqiy me‘yorlari majmuini ifodalaydi. U shaxsda tabiatga mas‘uliyatli munosabatni tashqi majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj va e‘tiqod darajasida shakllantirishga xizmat qiladi. UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Barqaror rivojlanish uchun ta‘lim” konsepsiyasida ekologik ta‘limni madaniy va hududiy kontekstga moslashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv milliy-etnik ekologik tajribani ta‘lim jarayoniga integratsiyalash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu holat “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda ham o‘z ifodasini topgan. Umumiy hisobda, tadqiqotimizda belgilangan kognitiv, qadriyatli-me‘yoriy va xulq-atvoriy tarkibiy qismlarning yaxlitligi etnoekologik madaniyatning konseptual modelini ifodalaydi. Bu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq: bilim (kognitiv) – qarash va e‘tiqodlarni (qadriyatli) shakllantiradi, o‘z navbatida bu e‘tiqodlar amalda xulq (xulq-atvoriy) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida ushbu uchlikni bir butun tizim sifatida rivojlantirish yuqori natija berishi aniqlandi. Ahamiyatlisi, milliy etnoekologik madaniyat elementlarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish yoshlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini yaxlit shakllantirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalarni mahalliy va xalqaro ilmiy manbalar bilan solishtirish ularning yuqori darajada mos kelishini ko‘rsatdi. Avvalo, tadqiqotimizda belgilangan kognitiv-qadriyatli-xulqiy model ilgari turli nazariyotchilar tomonidan taklif qilingan tushunchalar bilan hamohangdir. Masalan, rus olimi N. N. Moiseyev o‘z asarlarida ekologik muammolar yechimini insonning tabiatga munosabatini madaniy asosda qayta shakllantirish zarurati bilan bog‘laydi. U ekologik inqirozni yengish uchun jamiyatda yangi ekologik dunyoqarash va madaniyat shakllantirish lozimligini ta‘kidlab, bu jarayonda milliy madaniy qadriyatlar hal qiluvchi rol o‘ynashini qayd etadi. Moiseyevning ekologik madaniyatni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etishi ham mazkur tadqiqotimiz natijalariga garmonlashadi – chunki biz aniqlagan etnoekologik madaniyat aynan milliy-madaniy asosga ega ekologik madaniyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonlik olim G‘.Qodirov tomonidan taklif etilgan etnoekologik yondashuv konsepsiyasi ushbu tadqiqotda pedagogik tizim sifatida yanada rivojlantirildi. Qodirov asarlarida etnoekologik madaniyatning nazariy asoslari va uni shakllantirish tamoyillari bayon etilgan edi (Qodirov, 2019). Bizning tadqiqotimizda esa ushbu yondashuv maktab ta‘limi darajasida konkret komponentlar va integratsiya usullari

nuqtayi nazaridan boyitildi. Boshqacha aytganda, Qodirov nazariyasi konseptual ravishda tasdiqlanib, unga pedagogik dastur ko'rinishi berildi. Bu milliy tadqiqotdan olingan ilmiy asos bizning natijalarimizni mustahkamlashda muhim manba bo'ldi.

Tadqiqotimiz natijalarini xalqaro ilmiy ishlardagi g'oyalar bilan ham solishtirish maqsadga muvofiq bo'ldi. Ma'lumki, so'nggi yillarda ekologik ta'limda mahalliy an'ana va "indigenous" (tub aholi) bilimlariga murojaat qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Xususan, Y. Nesterova (2020) va bir qator boshqa tadqiqotchilar an'anaviy ekologik bilimlar va xalqning tabiiy bilimlarini atrof-muhitni muhofaza qilish va barqarorlikka erishishda muhim omil sifatida ko'rib, ularni ta'lim dasturlariga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlashgan. Ularning izlanishlarida ko'rsatilishicha, zamonaviy maktab ekologik ta'limi, afsuski, ko'pincha mahalliy ekologik merosdan uzilib qolgan – buning oqibatida o'quvchilar uchun ekologik bilimlar "begona" bo'lib tuyulishi va ularni hayotga tatbiq etish motivatsiyasi past bo'lishi mumkin. Bizning tadqiqotimiz taklif qilgan etnoekologik madaniyat modeli esa aksincha, bilimlarni hayotiy madaniy kontekstga bog'lab o'rgatishni nazarda tutadi. Bu yondashuv xalqaro tajribadagi "madaniy jihatdan moslashtirilgan ta'lim" tamoyiliga to'la mos keladi. Shu o'rinda, tadqiqot natijalarining milliy ta'lim amaliyoti uchun ahamiyatini qayd etish lozim. O'zbekistonda so'nggi yillarda maktab va oliy ta'limda "ekologik madaniyat" fani joriy etilmoqda, ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid mavzular turli fanlar dasturlariga kiritilmoqda. Biz taklif qilayotgan yondashuv bunday intilishlarni yanada samarali qilishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, etnoekologik madaniyat komponentlarini ta'limga integratsiya etish orqali dars mazmunini o'quvchilarga yaqin va tushunarli, hayotiy qilgan holda, ularning qiziqishi va ishtirokini oshirish mumkin. Misol uchun, geografiya yoki biologiya darsida mintaqaviy ekologik muammolarni o'rgatishda shu hududga oid xalqona ekologik topilmalar, etnografik materiallar keltirilsa, o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglashadi va muammoni hal etishga daxldorlik hissini tuyadilar. Chet el olimlari ham shuni ta'kidlashadiki, o'quv dasturlarini mahalliy madaniy reallikka bog'lash o'quvchilarning motivatsiyasi va o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

etnoekologik madaniyat shaxs ekologik ongini shakllantirishda va barqaror ekologik xulq-atvorni rivojlantirishda muhim pedagogik hodisadir. Etnoekologik madaniyat milliy-madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ekologik bilimlarning uzviy birligi sifatida ekologik ta'limning barqarorligini ta'minlovchi ichki motivatsion mexanizm vazifasini bajaradi. Uning tarkibiy qismlari – kognitiv, qadriyatli-me'yoriy va xulq-atvoriy komponentlarning uyg'un rivojlanishi o'quvchilarda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga olib keladi. Mazkur yondashuv ekologik ta'lim mazmunini boyitish va uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'quv dasturlariga xalqning an'anaviy

ekologik bilimlari va qadriyatlarini kiritish o'quvchilarda nafaqat ekologik bilim va tushunchalarni, balki shaxsiy e'tiqod darajasidagi ekologik qarashlarni shakllantiradi. Bu esa ularning kundalik xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi real o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda ilgari surilgan g'oyalarni amaliyotda sinovdan o'tkazish keyingi vazifa sifatida belgilandi. Kelgusida etnoekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik tajribalar o'tkazish, turli hudud va sharoitlarda ushbu modelni qo'llash bo'yicha empirik ma'lumotlar to'plash zarur. Bu qo'shimcha tadqiqotlar natijasida etnoekologik madaniyat konsepsiyasini yanada boyitish, takomillashtirish va uning universallik darajasini aniqlash imkoni tug'iladi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi ekologik inqiroz sharoitida ta'lim jarayonini xalqimizning boy etnoekologik merosi bilan uyg'unlashgan holda tashkil etish o'ta muhimdir. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan yondashuv bu yo'nalishda ilmiy asos bo'lib, kelajakda barqaror taraqqiyot sari intilayotgan ta'lim tizimimizda etnoekologik madaniyat tamoyillarini keng tatbiq etishga xizmat qiladi. Ta'lim sohasidagi izchil islohotlar doirasida milliy madaniy qadriyatlar va zamonaviy ekologik bilimlarni integratsiyalash orqali barqaror rivojlanish avlodini tarbiyalash mumkinligiga umid bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-y. 28-yanvar PF -60.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 2020. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.
3. Abdug'Aniyev, O. I., Turdiboeva, S. X. Q., & Abdullayeva, H. R. Q. (2022). BARQAROR TARAQQIYOT VA ETNOEKOLOGIYA. Academic research in educational sciences, 3(5), 94-101.
4. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations.
5. Ахмадалиев Ю.И. ЕР ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. Т.: "Фан ва технологиялар" нашриёти, 2014. -340 б.
6. N.N.Moiseyev Ekologiya i obrazovanie (Ekologiya va ta'lim). Moskva: MGU.
7. А.Д.Урсул Устойчивое развитие и экологическое образование (Барқарор ривожланиш ва экологик таълим). Москва: Наука.
8. Гумелев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. Л.: Гидрометеиздат, 1990. - 528 с.

9. Иванов К.И. Проблемы этнической географии. - СПб., Издательства СПбГУ, 1998. 216 с.
10. Козлов В.И., Покшишевский В.В. Этнография и география // Сов.этнография. 1973. N 1,-С.3-14.
11. Кочуров Б.И. Экодиагностика и сбалансированное развитие. Учебная пособие – М.: ИНФРА-М.2016, 262 с.
12. Кочуров Б.И., Геоэкология: экодиагностика и эколого-хозяйственный баланс территории. -
13. Смоленск: СГУ, 1999. - 154 с. (<http://www.izdatgeo.ru>).
14. Левин М.Г., Чебоксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные типы и историко-этнографические области (к постановке проблемы) // Сов. этнография, 1955, № 4. С. 3–7.
15. G‘.Qodirov etnoekologik madaniyat asoslari. Toshkent: Fan.
16. I.D.Zverev Ekologicheskoe obrazovanie: teoriya i praktika Ekologik ta’lim: nazariya va amaliyot. Moskva: Pedagogika.
17. D.Tilbury Education for Sustainable Development: An Expert Review of Processes and Learning. Paris: UNESCO.
18. Y.Nesterova. Rethinking Environmental Education with the Help of Indigenous Ways of Knowing and Traditional Ecological Knowledge. Journal of Philosophy of Education, 54(4), 1047–1052.
19. H.Ochiai va mualliflar jamoasi. A Qualitative Assessment of Community Learning Initiatives for Environmental Awareness and Behaviour Change: Applying UNESCO ESD Framework. Sustainability, 14(7), 3671.